

---

Mahallaning to'rt kilometrdan ortiq ichki yo'llariga asfalt yotqazildi

*Farg'ona shahridagi bir qator mahallalarda dasturlarga asosan ichki ko'chalarning holati yaxshilanib, ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Aholini qiynab kelayotgan muammolarini bartaraf etish maqsadida davlat byudjetidan mablag'lar ajratilgan.*

*Jumladan, shahrimizdagi "Cheksho'ra" mahalla fuqarolar yig'inida ham asfaltlash ishlari yakuniga yetkazildi. Mahalladagi ichki ko'chalarning 4300 metr qismi ta'mirlanib, asfalt yotqazildi. Mazkur ishlar uchun davlat byudjetidan ikki milliard so'mdan ortiq mablag' sarflandi.*

*Yaqinda mahallada Prezidentimizning 2022 yil 25 oktyabrda qabul qilgan 408-sonli "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida 7 kilometr ichimlik suvi tarmog'i tortilgan edi.*

*Mahalla ahli hududda olib borilayotgan obodonlashtirish ishlaridan mamnun bo'lishib, Davlatimiz rahbariga o'z minnatdorchiliklarini bildirishmoqda.*

2023-08-22 11:45:00